

2P

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:5 (67014)
2015-yil
2-fevral

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092

Diqqat! Diqqat! «MUSTAQILLIK MADHI BOLALAR IJODIDA»

an'anaviy respublika
tanloviga marhamat!
(2-beiga qarang)



**Ikki o'rtoq jonajon,
Dars qilamiz biz shodon,
- deydi poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi
«Orom» 38-umumta'lim maktabining 1-«B» sinf
o'quvchisi Madinabonu Bahodirova va Shayxon-
tohar tumanidagi 180-umumta'lim maktabining
1-«V» sinf o'quvchisi Oliyabonu Abduraliyeva.**

Yaqinda Namangan tumanidagi
23-umumta'lim maktabining so'nggi rusumdagi
kompyuter jihozlari bilan ta'minlanishi
o'quvchilar uchun zo'r sovg'a bo'ldi.



Sh. MAXMADIYEV olgan suratlar



**- «Do'stlik» ordeni
sohibi, bobojonim Haydar
MUHAMMADning biz
bilan suhbatini hamisha
kitob haqida kechadi,
- deydi poytaxtimizning
Uchtepa tumanidagi
193-umumta'lim makta-
bining 7-sinf o'quvchisi
E'zoza
MUHAMMEDOVA.**

SADOQAT KUYCHISI

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 277-umumta'lim maktabida Zulfiya tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi.

Tadbirda shoiraning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, uning adabiy merosi va yoshlarga o'rnatgan hayoti asosiy e'tiborda bo'ldi. O'quvchilar shoiraning elga manzur she'rlaridan ifodali o'qib berdilar, uning hayotiga doir sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Ayniqsa, 8-«V» sinf o'quvchisi Mamlakat Abdumavlonovanning



«Ko'nglimda orzum ummon, To'liqlar – bayotlarim. Yonsang, Zulfiyadek yon, Ezgulik – qanotlarim...» deya

o'qigan she'ri yig'ilganlar e'tirofiga sazovor bo'ldi. Shundan so'ng tuman xalq ta'limi xodimlari va qo'shni maktablardan tashrif buyurgan ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari va ota-onalar ochiq darsga taklif etildi.

«Zulfiya vafo va sadoqat kuychisi», «Zulfiyaxonim qizlari», «Ajodlarni yod etib», «Zulfiyaxonim izdoshlari» mavzularida tashkil etilgan darslarda shoiraning ijodi hamda hayotiy faoliyatiga doir ma'lumotlar, asarlaridan parchalar yodga olindi. Tadbir so'ngida mehmonlardan «Oshkora fikr» so'rovnomasi olinib, mavzu bo'yicha mulohazalar o'rtoqlashildi.

Alisher **FAYZULLAYEV**

Diqqat! Diqqat!

«MUSTAQILLIK MADHI BOLALAR IJODIDA»

an'anaviy respublika tanloviga marhamat!

Istiqlol yillarida ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, bugungi kun o'quvchisiga yaratilgan keng imkoniyatlarni ko'rganda, barchasiga mustaqilligimiz sharofati bilan erishganimizni his etamiz.

O'zbekiston mustaqilligining 24 yilligiga bag'ishlab yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, ular ongida unutilib borayotgan milliy urf-odatlar, an'analarimizni tiklash hamda qadrlashga o'rgatish, respublikamiz chekka hududlaridagi iste'dodli yoshlarni kashf etish maqsadida Respublika bolalar kutubxonasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, «Tong yulduzi» bolalar va o'smirlar gazetasi hamkorligida joriy yilning fevral oyidan avgust oyiga qadar umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanlovi o'tkaziladi.

Mazkur ko'rik-tanlov Mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilgan ezgu ishlar, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va turli sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuq va natijalarni targ'ib etishga qaratilgan.

«Mustaqillik madhi bolalar ijodida» respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanlovi:

1. *Tasviriy san'at.*

2. *Badiiy adabiyot (she'rlar, hikoyalar) yo'nalishida o'tkaziladi.*

Tanlovda qo'yiladigan talablar:

– *tasviriy san'at orqali o'z ona yurtini ulug'lashi, uning betakror go'zalligini ko'ra bilishi;*

– *badiiy didga ega bo'lishi lozim.*

Badiiy adabiyot (hikoya) yo'nalishi bo'yicha ishtirok etadigan o'quvchilarning ijodiy ishlarida:

– *mavzu ixcham ifodalanishi, bilim va mahorat bilan mustaqil yozilishi talab etiladi.*

– *Vatan, ona yurt, Mustaqillik haqidagi tushunchalarning yoritilishi.*

She'riyat yo'nalishi bo'yicha ishtirok etadigan o'quvchilar o'zbek xalqining o'ziga xos milliy xususiyatlari, Vatan, Istiqlol, ma'naviyat va ma'rifat tarannumiga bag'ishlangan vazn, qofiya, band, badiiy mazmun, ohang kabi she'riyat talablariga javob beradigan she'rlar yuborishlari shart.

Mavzuga oid bo'lmagan ijodiy ishlar tanlovda ishtirok etmaydi.

Tanlov talablariga to'la javob beradigan eng mazmundor ishlar «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarida «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» ko'rik-tanloviga rukni ostida muntazam chop etib boriladi.

Joriy yilning avgust oyi oxirida Respublika bolalar kutubxonasida tanlovning Nizomi asosida o'quvchilarning ijodiy ishlari tasviriy san'at, hikoya, maqola va she'riyat yo'nalishlari bo'yicha hakamlar hay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi va 1-, 2-, 3-o'rinlar g'oliblari aniqlanadi.

Ko'rik-tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi 2015-yilning sentabr oyida Respublika bolalar kutubxonasining anjumanlar zalida o'tkaziladi. G'oliblar tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlanadilar.

Tanlovga kelgan ijodiy ishlarda o'quvchining yashash manzili, ta'lim olayotgan maktabi va sinfi, telefon raqami ko'rsatilishi hamda 4x5 hajmdagi fotosurati bo'lishi shart. Ijodiy ishlar 2-3 bet hajmda, Times New Roman formatida, 14 shrift va 1,5 intervalda yozilishi va joriy yilning 20-avgustiga qadar xat orqali Respublika bolalar kutubxonasi manziliga yoki elektron shaklda kutubxonaning elektron manziliga yuborilishi lozim.

Manzilimiz: Toshkent shahri, 100000 Yahyo G'ulomov ko'chasi, 47-uy Respublika bolalar kutubxonasi Tel: 8-371-233-17-91, 233-25-19 Elektron manzil: Bolalar_RK@inbox.uz www.kitob.uz

«MADAD» XIZMATGA SHAYLANDI

Joriy yilning «Keksalarni e'zozlash yili» deb nomlanishi har bir yurtdoshimiz oldiga qariyalarni hurmat va ehtirom qilish borasida bir qator vazifalarni belgilab berdi.

Shu maqsadda Andijon shahridagi 30-umumta'lim maktabi 8–9-sinflari ishtirokida «Madad» guruhi tashkil etildi. Bu guruh maktab atrofida yashovchi yolg'iz keksalardan xabar olish maqsadida ular xonadoniga borib, og'irini yengil qilmoqdalar. Qizlar oyna artish, kirlarni yuvish, uylarni yig'ishtirish bilan mashg'ul bo'lsa, o'g'il bolalar o'tin yorish, chiqindilarni tashish, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlarida ko'maklashishmoqda. Bu bilan yoshlar ongida keksalarni hurmat qilish, ularni e'zozlashdek chin insoniy tuyg'ular shakllanib, yuksalib bormoqda.



H. HAMIDULLAYEV olgan surat

Madadkorlarning sidqidildan ko'rsatgan ko'maklaridan minnatdor bo'lgan bobojon va buyijonlarimiz o'quvchilarga hayotiy tajribalaridan misollar keltirib, pand-nasihatlari orqali yo'l-yo'riq ko'rsatmoqda. Qariyalarning «Mehnatigiz rohatini ko'ring», «Yurtimizda tinchlik, xonadonlarimizda xotirjamlik bo'lsin!» deya qo'llari doim duoda.

Nurbek **NURALI** o'g'li

INTILISHLAR SAMARASI

Odatda, farzandni niholga mengzashadi. Uni kichikligidanoq qaysi tomonga bursang, o'sha yoqqa qarab o'saveradi. Lekin har qanday niholning unib-o'sishida u quvvat olayotgan zaminning alohida o'rni bor.

Javohir Saidov 15 yoshda. Buxoro viloyati, Jondor tumanidagi 49-IDUMning 8-sinfida a'lo baholarga o'qiyotgan iste'dod egasi o'n yoshidan rassomchilikka qiziqdi. U dastlab tasviriy san'atning boshlang'ich ta'limini ustoz Gulzora Qurbonovadan oldi. Keyinchalik tuman «Barkamol avlod» bolalar markazidagi to'garakka qatnay boshladi.

Yaqinda bo'lib o'tgan «Mustaqillik – mening taqdirimda» bolalar festivalining texnik ijodkorlik yo'nalishida ishtirok etgan iqtidorli o'quvchi plastmassa mahsulotlari chiqindisi vositasida ixtiro qilgan «Farrosh o'yinchoq robotcha» festivalga tashrif buyurgan mutaxassislar e'tiborini tortdi va ijodkor faxrli o'rin sohibi bo'ldi. Shuningdek, Javohir «Mening qadrdon o'rmonim» bolalar rasmlari xalqaro tanlovida 1-o'ringa munosib topildi.

– Bunday yutuqlarni qo'lga kiritishimda men uchun barcha qulayliklarni yaratib bergan maktab rahbari Vali Sulaymonov, ustozlarim Norbibi Sharipova, Olim Shodiyev, Shahnoza Ismoilovanning hissasi katta, – deydi g'olib. – Ustozlarim, ota-onam



DO'STLIK MASOFA BILMAS...

Yuqoridagi sarlavhani bejiz keltirmadik. Chunki do'stlar, birodarlar orasidagi masofa qanchalik uzoq bo'lsa ham ularga bu aslo qiyinchilik tug'dirmaydi. Gazetamizning ham respublika bo'ylab juda ko'p yosh do'stlari borligiga ishonamiz. Buni o'quvchilardan har kuni tahririyatimizga ko'plab maktublarning kelishidan bilamiz. O'lis manzillardan bizga xabar olib kelgan maktublaringizni o'qir ekanmiz, qalbimiz quvonchga to'ladi. Siz, aziz gazetxonlarga o'z minnatdorligimizni bildirgan holda bizga yanada ko'proq maktub yo'llang, deymiz.

XONADONIMIZ FAYZI

«Keksalarni e'zozlash yili» barchani birdek quvontirdi. Katta hayot tajribasiga ega bo'lgan buva-yu buvilonlarimiz uyimizning ko'rki, fayz-u barakasi hisoblanadi. Mening ham keksa buvam bor. U kishi «Shunday zamonda davr-u davron surayotganimdan juda mamnunman», deb ko'p marta shukrona aytadi. Bizga yaxshi o'qishni, kelgusida yetuk va barkamol inson bo'lib yetishishimiz uchun yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz zarurligini bot-bot takrorlaydi. Biz buvamning uzoq umr kechirib, kamolimizni ko'rishini juda-juda istaymiz. Hatto bobojonim haqida to'rt qator she'r yozishga harakat qildim:

**Bobojonim, qadrdonim,
Qalbi mehrga limmo-lim.
Menga yo'ldosh duongingiz,
Farahbaxsh siz-la onim.**

Husniyabonu OQMURODOVA,
Qashqadaryo viloyati, Mirishkor tumanidagi
22-umumta'lim maktabi o'quvchisi

MATEMATIKLAR YURTI

Bizning yurtimizni matematiklar yurti, deyish mumkin. Sababini bilasizmi? Chunki bizning zamindan Xorazmiy, Beruniy kabi buyuk matematik olimlar yetishib chiqqan. Mendan qaysi fanni yaxshi ko'rsan, deb so'rasalar, men baralla «Matematika!» deb javob beraman. Har safar qiziqarli matematik misol-masalalar yechganimda, xuddi mening eng katta orzum ushalgandek bo'ladi, go'yo. Menga murakkabdek ko'ringan mavzularni ustozim sodda qilib tushuntirib beradi.

Bizning maktabda Ixtiyor Babayeva, Zarifa Isroilova, Eldar Ablayev, Nodira Imamnazarova hamda Feruza Davronova matematika fanidan dars beradi. «Masalaning mazmunini tushunganingiz – uning yarim yechimini topganingiz bo'ladi», deydi ustozim Feruza opa.

Men matematika dars soatlarining ko'proq bo'lishini xohlayman.


**Shahzodbek ZOIROV,
Sirdaryo viloyati, Guliston
shahridagi 12-umumta'lim
maktabining 6-«A» sinf
o'quvchisi**



SURXONDAN MAKTUB KELDI...

34 ta imzo

Salom «Tong yulduzi!»
Sening ilk sonlaring qo'limizda. Uni ko'rib, o'qib juda mazza qildik.
Rang-barang sahifalar, qiziqarli ma'lumotlar-u boshqotirmalar... Demak, barchasi biz uchun!
Sinfimizda 34 nafar o'quvchi, hamma ahil, inoq. To'g'ri, ba'zan sho'xlik qilamiz, ammo ilmga, kitobga mehrimiz boshqacha.
Ustozlarimiz, ayniqsa, sinf rahbarimiz Xushvaqt Begashevning o'gitlariga quloq tutishga harakat qilamiz.
Obuna mavsumida sinfdoshlarimiz bilan birgalikda bir ovozdan seni tanladik. Chunki respublikamizning salohiyatli, bilimdon yoshlari haqida hikoya qilasan. Bu Hurmatli «Tong yulduzi!» Hamisha yurtimiz bolalarining sho'x kulgulariga sherik bo'lib yashash, tongning porloq va nurafshon yulduzi bo'lib chaqnash sen va bizga nasib etsin!



Hurmat va ehtirom ila,
Termiz shahridagi 11-umumta'lim
maktabining 6-«A» sinf
o'quvchilari

ZUKKO SARVINOZ

Maktabdoshim Sarvinoz Jo'rayevani zukko va tirishqoqligi bois sinfdoshlari yaxshi ko'rishadi. U birinchi sinfga chiqqanida «Tong yulduzi»da surati chop etilgandi.

– Shundan buyon mana shu gazeta mening hamrohimga aylangan, – deydi u.
Sarvinoz hozir 4-«A» sinfida tahsil olmoqda. Bo'sh vaqtlarida rasm chizishga, shaxmat-shaxka o'ynashga juda qiziqadi. Sinf a'lochisi olgan saboqlari uchun ustozisi Gulsara opa Saydaliyevadan minnatdor.

– Yangi yil arafasida bobom bilan birga tahririyatga borib, chizgan rasmlarimni ko'rsatdim va sevimli gazetamga obuna bo'lib qaytdim.

«Qish zavqi» deb nomlangan bu rasm uning yaqinda chizgan ijod namunalaridan biridir.

Odina SAHOBIDDIN qizi,
Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi



Xalq orasida bironing xayoliga ham kelmaydigan yaxshi va ibratli ishlarni bajarib yuradigan insonlar haqida «afandiga o'xshaydi», degan gaplar yuradi.

Yaqin bir tanishim bilan shahrimizning maktablaridan birida uchrashib qoldik. Maktab o'quvchilari bilan bir necha soha vakillari ishtirokida anjuman o'tkazilayotgan edi. Zukko bolajonlarning savol-javoblaridan xursand bo'lib o'tirganimda, do'stim sekin turtib qo'ydi. Hayron bo'lib qaragan edim, bizdan uch-to'rt qator narida o'tirgan nuroniy otaxonga ishora qildi va sekin shivirladi:

– Afandi odam. Nevarasi shu maktabda o'qiydi. Men-ku onda-sonda kelaman. Bu odam maktabdagi birorta tadbirdan qolmas ekan.

Negadir sahnadan ko'zini uzmay, bolalarning har bir harakatini kuzatib o'tirgan otaxon bilan tanishgim, suhbatini olgim keldi. Do'stim tadbirdan so'ng o'sha kishi bilan uchrashtirib qo'yishga va'da berdi.

Otaxon haqiqatan ham ajoyib ekan. Marosimdan so'ng bekatgacha gaplashib ketdik.

– Hozirda sakkizta nevaram shahardagi turli maktablarda o'qishadi, – dedi u qiziqish bilan

AFANDI ODAM

eshitayotganimdan zavqlanib. – Ularning nechanchi sinfda o'qishi, sinf rahbari kimligigacha bilaman. Uydajadval tuzib qo'rganman. Har oyda ustoziga uchrab xulqi, o'zlashtirishi haqida surishtirib, bilib boraman. Biror fandan oqsayotganini bilib qolsam, o'sha fanni yaxshi biladigan

boshqa nevaramga birlashtirib qo'yaman. To'zlash-tirmagunicha ko'nglim joyiga tushmaydi.

– Bu harakatlar samarasini beryaptimi? – dedim otaxonning zavqiga sherik bo'lib.

– Albatta, – dedi u kishi ko'zlarini chaqnab.

– Oliyog'ni bitirgan va o'qiyotgan nevaralarim bor. Ularni ham o'z vaqtda mana shunday nazorat qilganman. Har oying so'nggi dam olish kuni o'quvchi-nevaralarim kundalik daftarlari bilan uyimga kelishadi. Ularning baholarini ko'rib chiqaman. Harakatlariga qarab kitob, ruchka yoki ularga kerak bo'ladigan biror buyum bilan rag'batlantiraman.

O'sha chog'da ularning quvonganini ko'rib, o'zim ham yayrab ketaman. Buvisi esa «Qayoqdagi ishlarni qilib yurasiz, afandi chol», deb koyib qo'yadi. Toliqib qolmasin, deb kuyinadi-da. Mening charchamasligim bolalarimning yutug'ida ekanligini qaydan bilsin?!

Nuroniy, serg'ayrat otaxon bilan ancha gurung qildik. Ta'lim sohasida yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish uchun harakat qilayotgan bu insonning tutgan yo'li ibratli. Vaqti kelib, meni ham «afandi chol», deyishlarini juda-juda istadim.

Yusuf ABDULLAYEV

GAJDUMAKDA BIR MAKTAB BOR...

Imoratlar ichida eng buyugi maktabdir, deyishadi ulug'lar. Buyuklik nomini oqlash maktab o'qituvchisidan ulkan fidoyilik talab qiladi.

Fidoyilik bu – igna bilan quduq qazishdan-da mashaqqatliroq kasbning nonini halolash, unga sadoqatli bo'lish, ya'ni o'z oromidan kechib, o'zgal kelajagi uchun kurashib yashash degani. Fidoyilik bu – qalb qoni bilan shogirdlar taqdirini bitish degani. Mana shu ulkan harflar bilan bitilgan «FIDOYILIK», ta'bir joiz bo'lsa, qahramonimiz, tajribali pedagog, fransuz tilidan qator darsliklar muallifi, «Shuhrat» medali, «El-yurt hurmati» ordeni sohibi Said Rahmonovning qon-qoniga singib ketgan. Shundanmikan, tong otgandan kun botguncha va yana yarim tungacha maktabni tark etmaydi u.

Said Rahmonov boshqarayotgan G'ijduvon tumanidagi fransuz va ingliz tillari chuqurlashtirilgan 62-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati nafaqat respublikamizda, hatto xorijda ham taniqli. «Fransiyaning O'zbekistondagi maktabi» nomini olgan bu ta'lim maskaniga yo'lingiz tushsa, o'zga bir olamga tushib qolganday bo'lasiz. Qo'lini ko'ksiga qo'yib, sizga ochiq chehra va odob bilan salom berayotgan o'quvchilarni ko'rsangiz, ko'zingiz quvonadi.



N. SULTONOV olgan suratlar



Mustaqillikning ilk yillaridayoq ustoz mamlakatimiz xorijiy tillar o'qituvchilari guruhi bilan Yevropa til o'rganish markaziga yuborildi. Bundan ko'zlangan maqsad chet tilini o'rgatish masalalari bo'yicha markazda malaka oshirish va ta'limdagi chet el texnologiyasini o'rganish hamda bu borada xorij pedagoglari bilan tajriba almashish edi.

Maktab tashkil topganiga salkam yigirma yil to'lgan bo'lsa-da, internat jamoasining samarali mehnati birinchi yildayoq o'z mevasini berdi: o'sha yili fan olimpiadalari mavsumida respublika bosqichida maktab-internat o'quvchisi Nozima Amonova respublika fan olimpiadalari tarixida birinchi bo'lib 100 ballik imkoniyatdan maksimal ball to'plab, mamlakatimiz ta'lim tizimidagi barchaning diqqatini o'ziga tortdi.

Bugungi kunda tumandagi Gajdumak mahallasida joylashgan maktab qabul imtihonlarida bir o'rin uchun 7-8 nafar o'quvchi kuch sinashadi. Ayni damlarda viloyatdan tashqari respublikamizning turli hududlari – Toshkent, Chirchiq shahri, Sirdaryo, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand viloyatlaridan o'quvchilar kelib, maktab-internatda tahsil olayotgani bu maskanning nufuzi va unga bo'lgan ishonchning nishonasidir.

Nurbek QIDIRALIYEV

ODAM SAVDOSI – ASR MUAMMOSI

Bugungi davrda odam savdosi tufayli yuzaga kelayotgan global xavfning tobora ortib borayotganligi insoniyatni jiddiy tashvishga solmoqda.

YOSHLAR TARBIYASIGA MAS'ULMIZ

Bu borada respublikamizning barcha ta'lim maskanlarida mazkur jinoyatga qarshi kurashish, uning oldini olish yuzasidan targ'ibot-tashviqot ishlari uzluksiz ravishda olib borilmoqda.

Xususan, bizning maktabda ham huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tuman bo'limi, tuman xalq ta'limi bo'limi xodimlari, mahalla fuqarolar yig'ini vakillari ishtirokida davra suhbatlari, uchrashuvlar, savol-javob kechalari tez-tez o'tkazilib kelinmoqda.

Yaqinda yuqori sinf o'quvchilari ishtirokida «Biz qullikka qarshimiz» mavzusida rasmlar ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Unda o'quvchilar mavzuga oid o'z tasavvurlarini chizishdi. G'oliblar mutasaddi tashkilotlarning faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi.

Aziz o'qituvchilar, bugungi yoshlarimizning kuchli, bilimli, aqlli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari yo'lida bor bilim, mehnat hamda mahoratimizni ayamaylik.

Halima YUSUPOVA,

Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi
96-umumta'lim maktabi direktori

BIZNING KUTUBXONA

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 59-umumta'lim maktabida kitobxon o'quvchilar talaygina. Maktab kutubxonasi hamisha o'quvchilar bilan gavjum.

Kutubxona mudirasi Dilfuza opa Rahimova, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Xosiyat opa Suvonova kabi ustozlar har chorakda «Ezgulik daraxti», «Kitobim – oftobim», «Kitobga mehr», «Farzandinga kitob sovg'a qilaman», «Kitobxon oila», «Uch farzandga bir kitob» singari ko'rik-tanlovlarni o'tkazib kelishadi.

– Maktabimiz xitoy va koreys tillariga ixtisoslashtirilgan. Shuning uchun kutubxonamizda mazkur tilga oid adabiyotlar juda ko'p. O'quvchilar jahon adabiyotini ham qunt bilan o'rganmoqdalar. Endilikda kutubxonamiz internet tarmog'iga ulangan bo'lib, o'quvchilar «ZiyoNet» saytidan foydalanishlari yo'lga qo'yilgan, – deydi Dilfuza opa.



Bugungi kunda o'quvchilar uchun yaratilgan bunday qulayliklardan oqilona foydalanayotgan yosh kitobxonlarga havasimiz keldi. Zero, kitob – aql charxi, iste'dod mevasidir.

Muzaffar AHMEDOV

A. FAYZULLAYEV olgan suratlar

Lesson 21

DAILY SERVICERS
(Maishiy xizmat ko'rsatuvchilar)

- | | |
|------------------|-------------------------------|
| Carpenter | qulf tuzatuvchi |
| Painter | montyor |
| TV repair person | duradgor |
| Locksmith | kavsharlovchi (vodoprovodchi) |
| Gardener | bo'yoqchi |
| Electrician | bog'bon |
| Plumber | televizor tuzatuvchi |



Put the suitable words:

Yesterday in Eldor's house the table was broken and they had to call



Zarnigor's father is a He repairs everything at home.



Maillon is a good

Kamol's little brother broke the lock yesterday afternoon and his parents called the



FIND THE VERBS
(Fe'llarni toping)

1. He always goes to work by car. *goes*
2. I write a letter to Jane every week. _____
3. Yesterday evening I watched television. _____
4. I clean my teeth every morning. _____
5. Jack plays the piano very well. _____



Susanna ABLAYEVA,
Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi
12-umumta'lim maktabining 4-«E» sinf o'quvchisi

CROSSWORD


Write each color correctly into the puzzle.

Down:

1. kacbl
2. der
4. hewit
6. greano
8. wrmob

Across:

1. lbeu
3. nipk
5. Leylwo
7. nereg



Otabek BAKIROV,

Toshkent viloyati, Angren shahridagi 27-umumta'lim maktabi o'quvchisi

ABOUT SPORT
(Sport haqida)

Using these expressions make a dialogue with your friends and don't forget to learn by heart the new words.



Do you go in for sports? – Sport bilan shug'ullanasizmi?

I go in for gymnastics – Men gimnastika bilan shug'ullanaman.

I don't play sports – Men sport bilan shug'ullanmayman.

I prefer to watch sports – Men tomosha qilishni afzal ko'raman.

I like winter sports most of all – Men qishki sport o'yinlarini juda yaxshi ko'raman.

What team do you «root» for? – Qaysi jamoaga muxlislik qilasiz?

My favorite sportsman is Odil Ahmedov – Mening sevimli sportchim bu Odil Ahmedov.

My favorite team is «Paxtakor» – Mening sevimli jamoam bu «Paxtakor».

I am fond of riding a bike – Men velosiped minishni yoqtiraman.

Let's play football – Keling, futbol o'ynaymiz.



Ibrohim FAYZIRAHMONOV

WINTER

Winter days are short and cold. The days get dark early. People have to get up and go to bed in the dark. Sometimes on cold mornings there is frost on the grass and on the streets, sidewalks and cars.

On some days in winter it snows. A snowy day is cloudy and cold. Sometimes the wind blows during a snow. A lot of snow and wind is called a blizzard.

Winter is the time to wear clothing and to stay inside near the fire. It is also a time for the winter sport of skiing. Many people go to the mountains to ski.

Words to know:

- Frost – sovuq
- Sidewalk – yo'lak
- Ski – chang'i uchmoq
- Blizzard – izg'irin



Exercises

A. Check (✓) the true facts from the reading.

In the winter

- the days are shorter. _____
- frost appears on the grass. _____
- there are many warm, sunny days. _____
- people get up in the dark. _____
- is a good time for swimming. _____
- warm clothing is necessary. _____
- skiing is popular sport. _____

B. What's missing? Find the missing adjectives in the reading.

1. The days get _____ early.
2. On _____ days in winter.
3. Time to wear _____ clothing.
4. A _____ day is cloudy and cool.
5. _____ people go to the mountains.

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

NON ISI

Dadam keltirgan oq un,
Xamir bo'ldi-yu bir kun.
Onajonim sut qo'shib,
Mehrini berdi jo'shib.

Tandirni so'ng qizdirdik,
Bo'rsildoq non pishirdik.
Onam uzdi qancha non,
Ham katta-yu kulcha non.

Tuzatib dasturxonni,
Qo'ydik mazali nonni.
Qara, uni isi zo'r,
Ishonmasang tatib ko'r.

Dildora MUFAZZALOVA,
Buxoro viloyati, Vobkent tumanidagi
21-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

BUVIJONIM

Sochini yo'q qorasi,
Sakkiztadir bolasi.
Onaginam onasi,
Buvijonim, buvijon.

Doim mehribon bo'lgan,
Yuragimdan joy olgan.
Nabiram deya suyg'an,
Buvijonim, buvijon.

Yagonadir dunyoda,
Mehrlari ziyoda.
Nur balqiydi yuzida,
Buvijonim, buvijon.

Dilnura SAFAROVA,
Sirdaryo viloyati,
Sardoba tumanidagi
10-umumta'lim maktabining
5-sinf o'quvchisi

O'ZBEKISTON

Har jabhada tengi yo'q,
Ajib diyor bor ekan.
Go'zal-u hur, jannatmakon,
Olam ichra tanho ekan.

Bolalari sho'x-shodon,
Keksalari xo'b mehribon.
Mevalari bol-u shakar,
Ajib totli bo'larkan.

Tog'larida o'ynar ohu,
Daryolari baliqqa kon.
Samodagi buyuk yog'du,
Aziz makon - O'zbekiston!

Marjona HAMIDOVA,
Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi
265-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

YULDUZ

Ko'kda sochilgan zarcha,
Go'yo uzilgan shamcha.
Qarab turib osmonga,
Savol berar ukam menga:

- Osmondagi yulduzchalar
Nimagadir osilganmi?
Qarang-a, opajonim,
Yo osmonga qoqilganmi?

Qarang opa, bitta yulduz,
Tushib ketdi o'rni qolib.
Yuring, tez qidiramiz,
So'ng joyiga ilamiz.

Aziza QOBILOVA,
Jizzax shahridagi
11-umumta'lim maktabining
6-A sinf o'quvchisi

KITOB

Kitob, mening do'stimсан,
O'zing aql chirog'im.
Yo'llarimni yoritgan,
Chin yo'ldoshim, o'rtog'im.

Mehrimсан, quvonchimsan,
Orzularga qanotim.
Senga yo'ldosh pallamda,
Go'zal erur hayotim.

Kitobimsan - oftobim,
Har qadamda madorim.
Komillikni o'rgandim,
G'ururimsan, ham orim.

Oding NURMUHAMMEDOVA,
Namangan viloyati, Norin
tumanidagi 37-umumta'lim
maktabining
7-sinf o'quvchisi

Ibrat

- Sizga shu havoda mushtday
bolakayning papkasini ko'tarib eshik qoqib
yurish zarurmidir soqolingizni selkillatib? -
sovuqdanmi yo tez yurganidanmi rangi
bo'g'riqib darvozadan kirib kelgan Ashirmat
otani koyish bilan qarshi oldi kampiri
Jamila xola.

- Zarur-da,
onasi, zarur, -
Ashirmat ota
ayvondagi o'rindiqqa
o'tirib, kampiri uzatgan
choydan ho'pladi.

- Nima, mukofot-
ga ho'kiz yoki qo'y
berdimi? - hazil aralash
piching qildi xola.

- E, onasi-ey, muko-
fotdan avval senga bir
voqeani so'zlab beray...

Ashirmat ota Jamila
xolaga aytib bermoqchi
mukofot haqida eshitishdan
oldin uning sovuqda nega eshik
qoqib yurganining sababini bilib
olaylik.

...Gap shundaki, bugun avtobusda Ashirmat
otaga bir maktab o'quvchisi hamroh bo'lgan.
U darsdan toliqibmi, mudrab kelayotgan ekan.
Keksalik, otaning ham ko'zi ilinibdi. Bir mahal
qarasa, bolakay tushib ketibdi-yu, sumkasi
esidan chiqib o'rindiqda qolibdi.

Ashirmat ota sumkani ochib, bolakayning
qaysi maktabda o'qishini bilib, topib boribdi.
Uning uy manzilini maktabdan olib, sumkasini

eltib beribdi.

- Maktabiga tashlab kelavering, o'zlari
berishadi. Jon-jon o'zingizning joningiz, - deya
javrab qolgan Jamila xolaga ishni bitirib
mamnun qaytib kelgach, bolalikda bo'lib o'tgan
bir voqeani so'zlab berdi.

- Xuddi
mana shu
papkasini
yo'qotgan
bolakayning
yoshida edim.

Onam kir yugvani
yop (Jayhun
tarafalarda loyqa
oqadigan soydan
kattaroq suvloq)
bo'yiga borib,
buvimdan
yodgor uzugi-
ni yo'qotib
qo'yg'an.

- Yagona
ziynatning edi,
bira m
bo'shshagan kelin

bo'lding, - deb rahmatli buvim - dadamning
onasi rosa koyigan.

Bahorning ilk kunlarida onam beliga arqon
bog'lab yopdan uzugini axtargan. Chunki shu
uzuk tufayli eshitmagan gapi qolmagan, yig'la-
magan kuni bo'lmagan. Axiyri undan umidini
uzib qo'yg'an. Qish avvalida dehqonlar yoz bo'y
loy bosgan yopni qazishga kirishganlar.

Shunda bir mo'ysafid odam onamning

MUKOFOT



Qutlibeka RAHIMBOYEVA,
O'zbekiston Respublikasida xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi

ZUBAYDA olgan surat

uzugini loydan topib, uyga olib kelib bergan.
- Haloling ekan, qizim, buyursin! Sening
uzuging dostoni butun qishloqqa ketdi, shuning
uchun har kaft loyni tekshirdim, - debdi
mo'ysafid.

Shunda onam yig'lab duo qilib:
- Yuzimni yorug' qildingiz, bo'shang degan
malomatdan qutqardingiz, sizga buning evaziga
nima mukofot bersam oz, - deya minnatdorlik
bildirganida, mo'ysafid:

- Sening quvonganing o'zi mukofot, qizim,
- degan...

- Mana, onasi, bolaning quvongani menga-
yam mukofot. Lekin undan ham kattaroq
mukofot mening, sen aytmoqchi, soqolimni
selkillatib, papkasini ko'tarib borganim uning
ko'z o'ngida, ko'nglida qoladi. Bir kun kelib u
ham nimadir topib olsa, egasiga eltib beradi...
Bundan ortiq mukofot bormi?! - deya hikoyasini
yakunladi Ashirmat ota.

MARG'ILONLIK CHEMPION

Turnir g'olibi, Marg'ilon shahridagi 2-bolalar va o'smirlar sport maktabi o'quvchisi Ahadjon Kimsanboyev ikki yildirki, shaxmat bilan shug'ullanib keladi. Uning qobiliyati bilan birga tirishqoqligi musobaqalarda g'alaba sari yetaklamoqda. Respublika musobaqasida

barcha raqiblardan ustun kelgan sportchi finalda poytaxt vakili Jahongir Oqbo'tayev bilan kuch sinashdi va ikki partiyada yutib, g'olib bo'ldi.

G'alabadan ruhlangan o'quvchi o'z ustida tinmay izlanmoqda. Kelajakda u Rustam Qosimjonov singari yurtimiz bayrog'ini xalqaro maydonlarda baland ko'tarmoqchi.

Yosh shaxmatchiga omad tilab qolamiz.

Nabijon TEMIROV va Muhammadsodiq ALIMOV tayyorlashdi

Joriy yil boshida 14 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'r-tasidagi O'zbekiston chempionati yakunlandi. Turnirda imkoniyati cheklangan o'smirlar ishtirok etishdi.



MUSLIMA MUXLISLARNI QUVONTIRMOQDA

Erta tong. Bobo nabirasini musobaqaga kuzatyapti. Bobosining duosini olgan Muslima o'ziga ishongancha safarga otlandi. Saroy mahallasida yashovchi Mahmudjon otaning suyukli nabirasi oilaning faxri. Mahalla ahli ham otaning quvunchiga sherik.

Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Muslima Yo'ldosheva dugonasi Nozigul Alijonova bilan birgalikda «Shuhrat» medali sohibi Botirjon Muqimov rahbarlik qilayotgan sport to'garagida erkin kurash bo'yicha shug'ullanib keladi. Tuman, viloyatda 1998-2000-yillarda tug'ilgan qizlar o'rtasidagi sport musobaqalarida 38 kg. vazn bo'yicha 1-o'rinni egallab, Qarshi shahrida o'tkaziladigan musobaqaga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Tinimsiz mashqlar o'z samarasini berdi. Muslima respublika chempionatida faxrli 2-o'rinni egalladi.

– Maktabimizda sportning 8 ta turi bo'yicha 200 dan ziyod o'quvchilar shug'ullanadi. Botirjon Muqimov, Bahodir Shamsiddinov murabbiylik qilayotgan to'garak a'zolari «Umid nihollari», «Quvnoq startlar»da qatnashib, faxrli o'rinlarni egallashmoqda, – deydi maktab direktori O'rinboy G'ofurov. – O'quvchilarimiz sportning basketbol, yunon-rum va erkin kurash turi bo'yicha respublika musobaqasida kuchli 5 talikdan o'rin egallagan bo'lsa, velosport musobaqasida viloyatda 1-o'rinni band etib, respublika bosqichida kuchli 6 talikdan joy oldi. Ayniqsa, o'quvchimiz Muslimaning g'alabasi barchamizni sevintirdi.

Oltinko'llik kurashchining erishgan yutuqlari nafaqat tuman, balki barcha andijonliklarning muvaffaqiyati, deyish mumkin.

Shukrulla G'ULOM



Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi 26-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi Madina Abdumurodova sportning badiiy gimnastika turi bilan muntazam shug'ullanib keladi.

Madinaning G'ALABASI

U yosh bo'lishiga qaramay, o'tgan vaqtlar mobaynida ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdi. Viloyatda o'tkazilgan bir qancha musobaqalarning I darajali diplom sohibasi bo'ldi. O'tgan yili Farg'ona shahrida o'tkazilgan respublika ochiq chempionatida II o'rinni egalladi.

Murabbiy Umida Qodirova shogirdining g'alabasini ko'rganida kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shiladi. Shogirdlari bilan yanada jiddiyroq shug'ullanish lozimligini his qiladi.



ORZULARI OYDIN QIZ

Yaqinda Turkiyaning Qorasuv shahrida dzyudo bo'yicha 1997-2000-yillarda tug'ilgan yoshlar ishtirokidagi xalqaro turnirda Shohista 63 kg. vaznda 4 nafar raqibidan ustun kelib, sovrinli o'rinni egalladi.

– Yoshligimdan o'zbek milliy kurashiga qiziqaman. Maktabimizning jismoniy tarbiya o'qituvchisi Sirojiddin Boymurodov men kabi uch yuzga yaqin o'g'il-qizlarga kurash, dzyudo, futbol, voleybol singari sport turlaridan saboq berib kelmoqda, – deydi Jizzax viloyati, Do'stlik tumanidagi 7-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Shohista Anorova.

O'tgan yil Shohista uchun omadli keldi. Yoz oyida Andijon shahrida 1999-2000-yillarda tug'ilgan havaskor yoshlar o'rtasida o'tkazilgan milliy kurash bo'yicha mamlakat chempionatida sovrindor bo'ldi. Keyinchalik Buxoro shahrida dzyudo bo'yicha respublika chempionatida ham faxrli o'rinni egalladi.

Xalqaro sport ustasi Shohista Anorovanning galdagi orzusi Olimpiada chempioni bo'lish.

Orzularing ijobat bo'lsin, Shohista!

Namoz QARSHIYEV, Jizzax viloyati

8 YOSHLI TENNISCHI

Marjona Eshmurodova Buxoro shahridagi 38-umumta'lim maktabining 3-«G» sinf o'quvchisi. U ona tili, matematika, o'qish, ayniqsa, ingliz tili fanini sevib o'zlashtiradi.

Darsdan bo'sh vaqtlarida shahardagi «Humo» majmuasida tashkil etilgan tennis to'garagiga qatnashadi. Sportning mazkur turi bilan ikki yildan beri shug'ullanib kelsa-da, shu vaqt mobaynida g'oliba nomiga ham sazovor bo'lishga ulgurdi. O'tgan yili o'tkazilgan musobaqaning shahar bosqichida 2-o'rinni egallagan bo'lsa, dekabr oyida mustaqilligimizning 23 yilligiga atab tashkillashtirilgan bellashuvda Buxoro shahri bo'yicha mutlaq g'olib bo'lib, yagona yosh tennischi nomini oldi.

Tennischi hozirda shahar «Barkamol avlod» bolalar markazining folklor-o'lakshunoslik to'garagida unutilib borayotgan milliy an'analarimizni tadqiq etmoqda. Bunda unga bobosi Eshmurod ota va buvisi Muharram aya yaqin ko'makchi.

Yosh sportchi yillar o'tib, tennis bo'yicha xalqaro musobaqalarda ishtirok etishni orzu qiladi.

Dilnoza ERALIYEVA





Papkangda nima bor, qizaloq?

Alisher
FAYZULLAYEV
fotolavhasi

QORBOBO

Qorbobojon, qorbobo,
Erib ketma, hoy bobo.
Yasadim seni qordan,
Qo'rqmay sovuq bo'rondan.

O'ynab olayin to'yib,
Barcha ishimni qo'yib.
Chaqiray o'rtoqlarim,
Kiysinlar qo'lqoplarin.

Qorbobojon, qorbobo,
Bir savolim bor, bobo:
- Yaltiraydi qor nega,
Shuni aytib ber menga?

Ayniqsa, kech oqshomda,
Oy chiqqanda osmonda.
Ko'z qamashar nuridan,
Oppoq-oppoq duridan.

Qishning ashulasida,
Quyoshning shu'lasida.
Go'yo shisha sinig'i,
Ko'zing olar yorug'i.

Qorbobojon, qorbobo,
Ketib qolma, jon bobo.
Sen-la o'ynayin to'yib,
Mazza qilib qish bo'yi.



SHU VATANGA

Shu Vatanga munosib,
Farzand bo'ling, bolalar.
El ishiga shay turgan,
Dilband bo'ling, bolalar.

Boshingizni silagan,
Yurtimiz bor bag'ri keng.
Sizga oq yo'l tilagan,
Bobo mehri ko'kka teng.

Manzil uzoq, lek ravon,
Uning, o'sing, o'rganing.
Sarhadsiz savollarning,
Javobiga ulguring.

Tinchlik bo'lsin barqaror,
Istiqlol umri mangu.
Beg'ubor chehrangizda,
Balqib tursin sho'x kulgu.

Zahro HASANOVA

KO'PAYTIRUV VA BO'LUV

(Jajji ertak)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan.
Belgilar shaharchasida ko'paytiruv
va bo'luv belgilari yashashgan ekan.
Qadim zamonda, ey yo'q, hadeb
qadim zamonda bo'laveradimi,
yaxshisi, o'zimizning zamonda
deymiz. Bo'luv belgisi juda ham
qo'rs va xasis ekan. Uni hech bir
raqam yaxshi ko'rmas ekan.
Ko'paytiruvni hamma raqamlar
hurmat qilisharkan.

Bo'luv kunlarning birida eng yaqin do'stlar yigirma va o'ttiz sonlarini o'zining eng o'tkir qaychisini olib bo'lib tashlabdi. Ko'paytiruv do'stlari ko'p bo'lishini xohlar edi. Bo'luv esa yolg'iz yashashni yoqtirardi. U juda ko'p sonlarni bo'lib tashlabdi. Bir kuni ko'paytiruv uning uyiga boribdi va debdi:

- Sen hadeb sonlarni bo'laverasanmi, yaxshisi, ularni ko'paytirishga harakat qil.

Lekin bo'luv qancha harakat qilmasin, ko'paytirishni eplay olmabdi, chunki u bo'luv belgisi ekan-da.

Ansor MATYOQUBOV,

Chilonzor tumanidagi 163-umumta'lim maktabining
3-«A» sinf o'quvchisi

TEZ AYTISHLAR

Chaqqon chumchuq
chigirtkani cho'qidi.

Qo'zivoq qo'zichoqqa qaradimi,
Qo'zichoq Qo'zivoqqa qaradimi?



TOPISHMOQLAR

Undan ovoz chiqmaydi,
Ko'zi ochiq uxlaydi.



O'zi bitta,
Ko'zi to'rtta.

Men yuraman,
u qoladi.



Shahzod HUSANOV,
poytaxtimizdagi 197-umumta'lim maktabining 4-«V» sinf o'quvchisi

pananda qisqa!

JO'XORILI SALAT

Kerakli masalliqlar: 200 gramm konservalangan jo'xori, 1 quti krab tayoqchalari, 2 dona kartoshka, 1 dona sabzi, 100 gramm guruch, 2 dona tuzlangan bodring, 2 dona tuxum, 200 gramm kolbasa, mayonez.

Tayyorlanishi: kartoshka, sabzi va tuxum tuzli suvda qaynatib olinadi.

Guruch alohida qaynatiladi. Pishgan sabzavotlar, bodring, tuxum va krab tayoqchalari o'rtacha kattalikda to'rtburchak shaklda to'g'raladi. Chuqurroq idishga pishirilgan guruch, uning ustidan sabzavotlar va tuzlangan bodring solinadi. Masalliq ustidan mayonez quyilib, yaxshilab aralashtiriladi. Tayyor salat likopchalarga solib, ko'katlar bilan bezatiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

8



Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

2-fevral 2015

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Yusuf
ABDULLAYEV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzirimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 47 128
Buyurtma - S 2012